
XOTIN-QIZLAR UCHUN MEHNAT YARMARKASI O'TKAZILDI

Toshloq tumani hokimligi tashabbusi bilan "SMSHD tex" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlash istagida bo'lgan xotin-qizlar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Mazkur mehnat yarmarkasida mahallalardan tashrif buyurgan 300 nafarga yaqin xotin-qizlar ishtirok etib, ish taklif etayotgan korxonalar faoliyati, xodimlarga yaratilgan imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdilar. Xotin-qizlarga mavjud mos ish o'rinlari taklif etildi.

O'tkazilgan mehnat yarmarkasida ish.mehnat.uz axborot tizimi orqali taqdim etilgan 350 dan ortiq bosh o'rinlari ham taqdim etildi. Shu kuni 16 nafar fuqarolarga ishga joylashtirish uchun yo'llanmalar berildi. 10 nafar xotin-qizlar kasb-hunar o'rgatishga yuborildi.

Shuningdek, 274 nafar ayollar korxonalar rahbariyati tomonidan huquqiy maslahatlar olishdi.

2023-09-23 08:41:15